



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№12  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 252 sahifa,  
2-dekabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari .....	26
<i>Xuseynova Abira Amanovna</i>	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
<i>Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna</i>	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
<i>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</i>	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari .....	40
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinoz Elyorjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
<i>Asatova Dildora Aslamovna</i>	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
<i>Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna</i>	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi .....	52
<i>Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna</i>	
The Concept of Symbols in Linguoculturology .....	56
<i>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</i>	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish .....	63
<i>Mitaliboyeva Dildora</i>	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish .....	66
<i>Nartayeva Shahoza Yulchibayevna</i>	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
<i>Normatova Nilufar Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish .....	80
<i>Qodirov Jurabek Mamatsimonovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model.....	83
<i>Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi</i>	
“Sab' ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar .....	87
<i>Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri .....	91
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna</i>	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish .....	99
<i>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli .....	102
<i>Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	106
<i>Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo</i>	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili .....	109
<i>Xusanov Samariddin Maxmadaminovich</i>	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari .....	112
<i>Yarashev Jo'rabek To'rayevich</i>	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки .....	117
<i>Габдульманова Ильнура Минисламовна</i>	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов .....	119
<i>Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи</i>	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
<i>Уразова М. Б., Усманова У. Б.</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа-маҳалла" в Узбекистане ..	130
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
<i>Юсупова Зулайхо Бахром кизи</i>	
Valeologik tarbiyada o'yin texnologiyalarining ahamiyati.....	139
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	
O'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasi tushunchasi, mazmuni va shakllanishi .....	142
<i>Buvorayeva Gulruh Shoikrom qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	145
<i>Cho'tboyeva Munisxon Eshpo'lat qizi</i>	
Tabiatga muhabbat: maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar va o'yinlar orqali ekologik tarbiya .....	150
<i>Ergasheva Umriniso Komilovna</i>	
Zamonaviy ta'lim – talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirish omilidir.....	153
<i>Ermatova Gulnoz Pirimovna</i>	
O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni .....	156
<i>Gazibekova Feruza Hakimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining raqamli texnologiyalar muhitida tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodikasi .....	159
<i>Haydarova Feruza Haydar qizi</i>	
Talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarni shakllantirish mexanizmi.....	162
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi.....	165
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda kasbiy-nutq madaniyatini rivojlantirish.....	168
<i>Lutfetdinova Ra'no Xusnetdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanishga zamonaviy yondashuvlar va jahon tajribalari ..	172
<i>Masharipova Barno Erkin qizi, Adilbayeva Dilnoza Adilbay qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'yinlari texnologiyalarining nazariy asoslari.....	175
<i>Masharipova Difuza Muxammadjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi .....	178
<i>Muhammadiyeva Feruza Turakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanish metodikasi.....	181
<i>Muhiddinova Munira Xayrullayevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matematika fanini o'qitishda raqamli transformatsiya vositalaridan foydalanishning metodik paradigmasi .....	184
<i>Narzullayeva Sevara Omonovna</i>	
O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	187
<i>Nizamova Nodira Paxritdinovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi .....	191
<i>Oysha Qurbonova, Nodira Abduraimova</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich ta'limda Finlandiya tajribasi .....	195
<b>Nodira Sherboyeva</b>	
Kutubxonachi kutubxona-axborot xizmati jarayonining yetakchi ishtirokchisi sifatida .....	198
<b>O'ktam Nosirov</b>	
Pedagogik ta'lim transformatsiyasida talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	204
<b>Rustamova Shoxista Omonjonovna</b>	
Globallashuv sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish masalalari.....	208
<b>Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li</b>	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari .....	212
<b>Sa'dullayeva Rushana</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	215
<b>Saidova Dilbar Erkinovna</b>	
Pedagog xodimlarda tolerantlik namoyon bo'lishining determinantlari.....	218
<b>Sattorova Maxliyo Dilmurod qizi</b>	
Kreativ metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkur va fikrlashni rivojlantirish .....	223
<b>Sultonboyeva Baxriniso Ilhomjon qizi</b>	
Artpedagogika texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirish metodikasi .....	226
<b>Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi</b>	
Boshlang'ich ta'limda yashil kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishlari.....	229
<b>Yaqubova Shoira Tog'aymuratovna</b>	
Emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	233
<b>Yarmatov Raxmboy Baxramovich</b>	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish .....	239
<b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi</b>	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык .....	242
<b>Марупова Дилфуза Давроновна</b>	
Oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsad va vazifalari .....	247
<b>F. R. Xosilova</b>	

# KUTUBXONACHI KUTUBXONA- AXBOROT XIZMATI JARAYONINING YETAKCHI ISHTIROKCHISI SIFATIDA

O'ktam Nosirov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasining professori v.b.,  
falsafa fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Maqolada kutubxona-axborot xizmatining o'ziga xos xususiyati, ta'sir o'tkazishning ikki obyektiga – foydalanuvchi va bosma nashr mahsulotiga hamda axborot bilan chambarchas bog'liqligiga ko'ra belgilanadigan jihatlari yoritilgan. Unda ushbu xizmatning bir tomondan foydalanuvchilarni nashr mahsulotlari va axborot bilan ta'minlash, mutolaa madaniyatini shakllantirishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan nashr va axborot manbalarini o'rganish, tahlil qilish hamda ularni tavsiya etish bilan bog'liq faoliyatdan iborat ekani ko'rsatib o'tiladi. Ushbu jarayonda kutubxonachi va foydalanuvchi o'rtasidagi o'zaro tenglik, shu bilan birga kutubxonachining yetakchilik roli masalasi ham ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy sifat, shaxsiy sifat, kutubxona-axborot xizmati, texnologiya, axborot yig'ish, axborot madaniyati, tafakkur sifati, diqqatlilik sifati, iroda sifati, kommunikativ sifat.

**Abstract:** The article discusses the specific characteristics of library and information services, defined by the dual nature of influence—directed simultaneously at two objects: the user and the printed publication, as well as by its close connection with information. It is noted that the librarian's activity involves, on the one hand, providing users with publications and information and cultivating reading culture, and on the other hand, studying, analyzing, and recommending printed and information sources. The article also highlights the issues of equality in the interaction between the librarian and the user, as well as the librarian's leading role in this process.

**Key words:** professional qualities, personal qualities, library and information service, technology, information gathering, information culture, quality of thinking, attentiveness, willpower, communication qualities.

**Аннотация:** В статье раскрываются особенности библиотечно-информационного обслуживания, определяемые его двойной направленностью – воздействием одновременно на два объекта: пользователя и печатное издательское произведение, а также его тесной связью с информацией. Отмечается, что деятельность библиотекаря, с одной стороны, заключается в обеспечении пользователей издательской продукцией и информацией, формировании культуры чтения, а с другой стороны – в изучении и анализе печатных и информационных источников и их рекомендовании. В ходе этого процесса рассматриваются вопросы равноправного взаимодействия между библиотекарем и пользователем, а также ведущая роль библиотекаря.

**Ключевые слова:** профессиональные качества, личностные качества, библиотечно-информационное обслуживание, технология, сбор информации, информационная культура, качество мышления, внимательность, сила воли, коммуникативные качества.

## KIRISH

Kutubxona-axborot faoliyati bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida milliy g'oya targ'iboti va komil inson tarbiyasi bilan bog'liq nazariy bilimlarni chuqur egallagan, ziyoli mutaxassis bo'lishni talab qiladi. Kutubxona-axborot xizmatining mazmuni ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarning ixtisosiga bog'liq bo'lib, bajaradigan lavozim vazifalariga ko'ra belgilanadi.

Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat murakkab, majmuaviy xususiyatga ega bo'lgani uchun kutubxonachi shaxsiga nisbatan muayyan kasbiy talablar qo'yiladi. Bir tomondan, kutubxonachi mehnat faoliyatining mazmuni va shakllari, vazifalari, ikkinchi tomondan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malaka, tayyorlik ko'rish mazmuni bilan belgilanuvchi hujjat – uning professiogrammasi hisoblanadi.



Kutubxona-axborot faoliyati texnologik va g'oyaviy, aqliy va jismoniy, ijodiy va xizmat ko'rsatishga oid yo'nalishlarni o'zida mujassam etadi. Ushbu faoliyatning texnologik qismi muayyan ajratilgan vaqt me'yorlari bo'yicha bajariladi, biroq ijodiy va tarbiyaviy qismini vaqt me'yorlariga sig'dirish amaliy jihatdan mumkin emas.

Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish jarayonida yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni to'laqonli bajarish uchun kutubxonachi oliy o'quv yurti yoki kollej dasturi hajmiga muvofiq bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kutubxona-axborot xizmati samaradorligi va zamonaviy talablarga mos shakllanishi borasidagi ilmiy qarashlarda kutubxonachi shaxsining professional kompetensiyalari yetakchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Xalqaro ilmiy manbalarda bir necha o'n yilliklar davomida kutubxonachining roli axborot jamiyatiga mos ravishda tubdan o'zgarib borganligi ta'kidlanadi. Michael Buckland o'zining axborot jarayonlari haqidagi tadqiqotlarida kutubxonachini "axborot oqimlarini boshqaruvchi faol subyekt" sifatida baholab, uning vazifasi faqat fondlarni boshqarish emas, balki axborot yaratish, uzatish va qayta ishlash jarayonlarida vositachilik qilishdan iboratligini asoslab bergan. Shuningdek, Michael Gorman zamonaviy kutubxonachilikning tamoyillarini tahlil qilar ekan, mutaxassisning axloqiy mas'uliyati, axborot madaniyati va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlarni tashkil etish qobiliyatini muhim deb hisoblaydi.

Barbara Ford kutubxonachining global axborot almashuviga qo'shayotgan hissasini o'rganib, kutubxonachi endilikda nafaqat mahalliy fondlar bilan ishlovchi mutaxassis, balki xalqaro axborot maydonida teng ishtirokchi bo'lib borayotganini ta'kidlaydi. Ranganathan tomonidan ilgari surilgan mashhur "beshta qonun" talqinlari ham hozirgi davrda yangicha mazmun kasb etib, ayniqsa "har bir o'quvchiga o'z kitobi" tamoyili raqamli axborot muhitida foydalanuvchi markazlashtirilgan xizmatlar rivojiga asos bo'layotgani tadqiqotlarda qayd etiladi. Carol Tenopir tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar kutubxonachining elektron resurslar bilan ishlashda analitik qobiliyati, raqamli kontentni baholash, foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Markus Wörner va Tom Wilson tadqiqotlarida axborot izlash xatti-harakatlari modeli asosida kutubxonachining maslahatchi sifatidagi roli tahlil qilingan bo'lib, foydalanuvchining axborotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va unga mos axborot yo'lini tanlash kutubxona xizmatining markaziy bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Tom Wilsonning "axborot ehtiyoji modeli" foydalanuvchi motivlari, intellektual tayyorgarligi va axborot olish strategiyalari kutubxonachi faoliyatida qanday aks etishini chuqur ochib beradi.

O'zbekiston olimlari orasida ham kutubxonachining kasbiy roli va malakasiga oid ilmiy izlanishlar keng rivojlangan. A. Xoliqov kutubxonachilik faoliyatining professional standartlarini tahlil qilib, axborot madaniyatining o'sishi, raqamli resurslar bilan ishlash ko'nikmalari, zamonaviy kataloglash standartlari va axborotni xizmatga yo'naltirish amaliyoti mutaxassis mehnatining sifatiga bevosita ta'sir etishini ta'kidlaydi. M. Abdullayev esa O'zbekiston kutubxonalarining raqamli transformatsiya jarayonida kutubxonachi shaxsining adaptiv kompetensiyalariga e'tibor qaratib, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, foydalanuvchilar segmentiga qarab xizmatni individuallashtirish, axborot xavfsizligi va media-savodxonlik bo'yicha kasbiy malakalarni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, S. Karimova va D. Jo'rayev kutubxona-axborot muhitida sifatli xizmat ko'rsatishning psixologik hamda kommunikativ jihatlarini ilmiy asoslagan bo'lib, xizmat jarayonidagi insoniy omillar, muloqot madaniyati, foydalanuvchi bilan muomala qilishda empatiyaning ahamiyati va kasbiy etikani kutubxonachilik kasbining ajralmas qismi sifatida ko'rsatib o'tadi. Xalqaro tadqiqotlar bilan uyg'un ravishda, O'zbekiston ilmiy adabiyotlari kutubxonachini nafaqat texnik jarayonlarni bajaruvchi mutaxassis, balki axborot siyosati, bilim boshqaruvi va madaniy-ma'rifiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida talqin qiladi.

Ushbu ilmiy ishlanmalar kutubxonachining kutubxona-axborot xizmati jarayonidagi yetakchi o'rni xizmatlarning mazmuni, ko'lami va sifatini belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Raqamli jamiyat sharoitida kutubxonachi mutaxassislik faoliyati yanada murakkablashib, u texnologik kompetensiya, axborot boshqaruvi, foydalanuvchi ehtiyojlarini oldindan tahlil qilish va innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirish orqali kutubxona xizmatining transformatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kutubxonachi faoliyatining kutubxona-axborot xizmatidagi yetakchi o'rnini aniqlash maqsadida ilmiy maqolalar, xalqaro tajribalar va mahalliy normativ manbalar kontent-tahlil usuli orqali o'rganildi. Amaldagi kutubxonalar faoliyatidan olingan amaliy ma'lumotlar kuzatish va hujjatlarni tahlil qilish orqali yig'ildi hamda ularning mazmuni sifat tahlili asosida umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish jarayonida kutubxonachi quyidagilarni bilishi shart:

- har bir foydalanuvchining qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib, alohida yondashuv asosida eng sara adabiyotlarni tavsiya qilish;
- bosma nashrlar haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lish, manbalarni taqqoslash asosida tahlil qila bilish, turli ommaviy tadbirlarni o'tkaza olish malakasiga ega bo'lish;
- kutubxona fondi va kataloglarini chuqur o'rgangan bo'lish, bibliografik qidiruv asosida manbalarni tezkorlik bilan topish, ko'plab axborotlar oqimi va bosma nashrlar orasidan eng maqbulini aniqlay olish;
- turli ko'rgazmalar tashkil etish, tezkor axborot yetkazishning turli usullarini qo'llay bilish, bibliografik sharhlar tashkil etish;
- o'z bilimi, tajribasi, ko'nikma va malakasi orqali foydalanuvchilarga ta'sir o'tkazish yo'li bilan ularda mutolaa madaniyati va axborot madaniyatini shakllantirish.

Bundan tashqari, kutubxonachi:

- axborot yig'ish, tanlash va tahlil qilish, yetkazish, bibliografik ma'lumotlardan foydalanish usullarini;
- foydalanuvchilarni o'rganish, ular bilan ommaviy va yakka tartibda ishlash usullarini;
- kutubxona-axborot xizmati, bibliografiya, mutolaa madaniyati, axborot madaniyati va hokozolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borish metodologiyasini to'la bilishi kerak.

Turli yosh, jins, ma'lumot darajasi va dunyoqarashga ega bo'lgan foydalanuvchilar bilan ishlash uchun kutubxonachidan ziyolilik, suhbat va munozara olib borish mahorati, muomala va muloqot madaniyatiga ega bo'lish ham talab qilinadi. Foydalanuvchilar bilan ishlashning yuksak darajasi, ishchanlik muhiti, kutubxonachining ishbilarmonligi, tadbirkorligi, ishga ijodiy yondashuvi, faoliyatning yanada oqilona yo'llarini topa bilishiga bog'liq.

Kutubxonada shakllangan ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit jamoadagi birlik va uyushganlikni mustahkamlaydi, umumiy maqsad sari faoliyat ko'rsatishga ilhomlantiradi. Foydalanuvchilar bilan ishlashni bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish uchun kutubxonachi quyidagi sifatlarga ega bo'lishi talab qilinadi.

Tafakkur sifati: turli-tuman, ziddiyatli axborotlardan obyektivlikka yaqin xulosa chiqara bilish, tezkor harakatchanlik, muammoning mohiyatini anglay bilish, hodisalar va voqealarni tanqidiy tahlil qilish, ma'lumotlar oqimidan kerakli axborotni ola bilish.

Diqqatlilik sifati: faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezlik bilan o'ta olish qobiliyati.

Iroda sifati: har qanday zaruriy ishga o'z-o'zini majbur qila olish ko'nikmasi.

Kommunikativ sifati: o'z kasbdoshlari va foydalanuvchilarga fikrini erkin, tushunarli bayon qila olish, ishchanlik ruhida suhbat olib borish, har bir foydalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yakka tartibda yondasha olish malakasi.

Demak, kutubxonachilik kasbining sifatlari bilimlar, ko'nikma va malaka, faoliyat samaradorligi darajasini belgilaydigan holatlarning murakkab majmuidir. Kutubxonachi professiogrammasi bajariladigan vazifalar, kutubxona-axborot xizmati foydalanuvchilari kategoriyasiga ko'ra talablar, qiziqish va ehtiyojlarning qondirishi hamda kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasidan tashkil topadi. Ko'pgina tadqiqotchilar yuqorida sanab o'tilgan sifatlardan tashqari mas'uliyatlilik, ijodiylik, tashkilotchilik, zamonaviy kutubxona-axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiyani bilish, moslashuvchanlik, kompyuter savodxonligi, o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatining mavjud bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar.

XXI asr boshlaridan ko'pgina xorijiy mamlakatlarda kutubxonachilik ishida yangi mutaxassislik va ixtisosliklar, ya'ni kutubxona-axborot sohasi menedjeri, bibliograf-analitik, kutubxonachi-texnolog, biblioterapevt, axborot bo'yicha broker, ma'lumotlar bazasi bo'yicha maslahatchi, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Zamonaviy kutubxonachi bugungi kunda zaruriy bilimlardan tashqari pedagogik-psixologik, elektron texnologiyalar, aholining barcha tabaqalarini mutolaaga jalb etish metodlarini ham yuksak darajada o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, kutubxonachi muayyan hududda yashovchi aholining, ayniqsa imkoniyati cheklangan shaxslarning (nogironlar, ishsizlar, ko'zi ojizlar va hokazo) xullas, har bir foydalanuvchining qiziqishi va ehtiyojini yaxshi bilishi zarur. Kutubxonachi umumiy va yosh psixologiyasi, konfliktologiya bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi va amaliyotda qo'llay olishi, elektron axborot bilan ishlay olishi va uni foydalanuvchilarga tavsiya etish shakllari hamda metodlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Mutolaa va axborot madaniyatini chuqur egallagan



holdagina kutubxonachi o'z bilimini, ko'nikma va malakasini foydalanuvchilarga yetkazish orqali jamiyatning mutolaa va axborot madaniyatini oshirishga o'z hissasini qo'shadi.

Kutubxonachi nutq madaniyati va notiqlik qobiliyatiga, san'atiga ega bo'lishi shart. U o'z kasbdoshlari va foydalanuvchilar bilan uzluksiz ravishda muloqotda bo'lganligi sababli nutqi ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, intonatsiya, diksiya, tempga ega, yoqimli ovoz tembri va chastotasiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Nutqning jarangdorligi, so'zlashganda pauza va mantiqiy urg'uga rioya qilish uning ta'sirchanligini oshiradi.

Mutaxassislarining fikricha, kutubxonachi nutq madaniyatini yuqori darajada egallash uchun quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

- *birinchidan*, o'z aqli bilan fikrlash;
- *ikkinchidan*, o'zi xohlagan narsaga emas, foydalanuvchining xohishini tezda anglash asosida uning uchun dolzarb bo'lgan muammoga asosiy e'tiborni qaratish;
- *uchinchidan*, foydalanuvchining nimalarga erishishni xohlashi bilan ko'proq qiziqish;
- *to'rtinchidan*, o'z fikrini mantiqan o'ylab bayon etish;
- *beshinchidan*, o'zidan avval kimdir gapirgan bo'lsa, eng avvalo, o'sha ma'ruzachidan qolgan taassurotdan auditoriyani tez olib chiqishni o'rganish;
- *oltinchidan*, bayon etiladigan fikrlarning e'tiborni tortadigan joylarini oldindan aniqlab olish, fikrlar foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishi va ular tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishish.

Kutubxonachi nutqi uning tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, unga ruhiyat va nafasat singdirilgan bo'lishi zarur. "Nutqda aytilmoqchi bo'lgan fikr foydalanuvchilar tomonidan to'liq anglanishi, ularga muayyan ta'sir o'tkazishi ahamiyatlidir" [12:107].

Shunga ko'ra, kutubxonachi nutqiga nisbatan ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning mantiqiy jihatdan aniq, ta'sirchan va maqsadga muvofiq bo'lishidir. Ta'kidlash kerakki, nutq ma'lum shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda joy, vaqt, mavzu va aloqa jarayonining maqsadi kabi omillar ham ahamiyatlidir. Shunday qilib, nutqning aloqaviy sifati deganda quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

Nutqning to'g'riligi, eng avvalo, kutubxonachining foydalanuvchi bilan o'zaro bir-birini tez va oson tushunishni ta'minlaydi. Nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yorlariga qat'iy va aniq amal qilinishi, uning talaffuz, diksiya va grammatik me'yorlarini egallash bilan bog'liqdir. Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi, eng avvalo, uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishidir.

Kutubxonachi nutqining aniqligi uning shakllanishiga xizmat qiluvchi til va tafakkur birligiga bog'liq bo'lib, "nutq va voqelik", "nutq va tafakkur" munosabati asosida belgilanishi mumkin. Aniqlik – so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik so'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq bo'ladi. Masalan, ilmiy uslubda atama va uning ifodalanishi asosiy o'rinda tursa, badiiy nutq uslubida so'z va iboralar faqat badiiy-estetik vazifani bajarib qolmay, muallifning maqsadi va g'oyasiga ham mos kelishi kerak.

Kutubxonachi nutqining mantiqiyliги uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik – bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan so'z ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Kutubxonachi nutqining ta'sirchanligi deganda og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va uning foydalanuvchilar e'tiborini tortadigan hamda qiziqishini oshiradigan xususiyatlarga ega bo'lishi hisobga olinadi.

Foydalanuvchilar tushunadigan tilda ularni ishonтира olish san'atini egallash, mavzuni yaxshi o'rganish, uni bayon etishning aniq rejasiga ega bo'lish, samimiylik, hurmat bilan munosabatda bo'lish ham ta'sirchanlikni oshiruvchi omillar hisoblanadi. Shuning uchun har bir kutubxonachi muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, izlanishi, mashq qilishi talab qilinadi. Kutubxona-axborot xizmati foydalanuvchilar o'rtasida ma'ruzalar qilish, suhbatlar uyushtirish, har xil chiqishlar qilish orqali amalga oshiriladi. Ularning foydalanuvchilarga qay darajada ta'sir qilishi, diqqatni qo'yilgan masalaning mohiyatiga yo'naltira olishi va ishonтира olishi kutubxonachidan katta mahorat talab etadi. Chunki har bir nutq, chiqish, suhbat ishonтира oladigan, tushunarli, yorqin, ta'sirchan, mantiqli va aniq bo'lgandagina foydalanuvchilarga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi.

Taniqli notiqalar o'z nutqlarining ta'sirchanligini oshirishda quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratganlar:

1. O'zi to'xtalib o'tayotgan masala yoki mavzuni chuqur o'rganish va o'zlashtirish.
2. O'z dunyoqarashiga ega bo'lishi, so'z va ish birligi, fikrlarni ilmiy asoslab berish.
3. Ma'ruzalar, suhbatlar paytida tinglovchilar bilan yaqin va samimiy muloqot o'rnatish.
4. Har bir mavzuning mazmunini to'liq ochib berishga mas'uliyat bilan yondashish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda har bir kutubxonada auditoriyaning diqqat-e'tiborini qaratish, foydalanuvchilarni qiziqtirish, "ular ongiga ta'sir ko'rsatishning xilma-xil vosita va usullari mavjud: yuz va qo'l harakatlari, turli ekran va sahna vositalari, ko'rgazmali qurollar, suratlar, texnik vositalar, qolaversa, eng an'anaviy usul bo'lgan oddiy doska ham yordam berishi mumkin" [6:117]. Lekin nutqning ta'sirchanligi, foydalanuvchilar ruhiyatiga ta'siri birinchi navbatda kutubxonachining til boyligidan foydalanish mahoratiga, nutqning ko'rkamligiga bog'liq. Chunki nutq tovushlardan, so'zlardan, gaplardan tashkil topadi. Xullas, kutubxonachi o'z nutqi uchun zarur bo'lgan eng muhim belgilarga doimo e'tibor berishi kerak. Og'zaki va yozma, publitsistik yoki badiiy, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa nutqlarning eng muhim belgilari grammatik jihatdan to'g'rilik, mantiqiy asoslanganlik kabi jihatlardir. Bular nutqning tushunariligi va asoslilikini ta'minlab turadi. Tilning badiiy tasvir vositalari ham nutq uchun eng muhim belgilar bo'lib, ta'sirchanlikni ta'minlaydi.

Grammatik jihatdan to'g'rilik va mantiqiy asoslanganlik kutubxonachi nutqining ishonchlilikini oshirish orqali foydalanuvchilarga ta'sir etish darajasini o'z-o'zidan oshiradi. Nutq madaniyati ko'nikmalari tarbiya, madaniyatning umumiy darajasi va insonning muayyan shaxsiy sifatleri bilan bog'liq bo'ladi. Shunga qaramay, ushbu jarayon nutq madaniyatining asosiy qoidalarini bilgan holda to'plangan kasb tajribasi jarayonida hosil bo'ladi. Bu qoidalarni chuqur bilish kutubxonachiga o'z nutqini ancha qulayroq shaklda foydalanuvchilarning samarali qabul qilishi nuqtayi nazaridan ham, shuningdek ularning kutubxonachi kasbiy sifatlariga ijobiy baho berishi nuqtayi nazaridan ham taqdim etishga imkon beradi.

Nutq madaniyatining asosiy qoidalari universal xususiyatga ega bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

- nutq madaniyati ko'nikmalarini hosil etish;
- nutq so'zlashga bevosita tayyorgarlik ko'rish;
- nutq so'zlash vaqtida o'zini tutish.

Nutq madaniyati ko'nikmalarini hosil qilish foydalanuvchilar bilan uchrashishga umumiy hozirlik ko'rish jarayonida quyidagi usullarni qo'llashni nazarda tutadi:

- tasavvur qilingan foydalanuvchilar oldida muayyan mavzu bilan so'zga chiqish;
- kasb faoliyatida ishlatiladigan muayyan atamalar va tushunchalar ta'rifiga aniqlik kiritish;
- o'z chiqishlarida audio yoki videoyozuvlardan, ko'rgazmali qurollar va kompyuter texnikasidan foydalanish.

Nutq so'zlashga bevosita tayyorgarlik ko'rish nutq madaniyati ko'nikmalarini hosil qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ko'pincha kutubxonada vaqt yetishmasligi yoki o'z kuchiga ortiqcha ishonishi tufayli bunga unchalik e'tibor berilmaydi. "Shuni esda tutish kerakki, ko'pincha kutubxonachining bilimi, tajribasi, malakasi, dunyoqarashi, madaniyati va boshqa shaxsiy sifatleri haqida uning so'zlariga qarab xulosa chiqariladi. Bu o'z navbatida o'z-o'zini namoyon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi" [9:56].

Umumiy holatlarda nutq mavzusi, davomiyligi va foydalanuvchilarning hozirligiga qarab unga tuzatishlar kiritilishi va muayyan mazmun bilan to'ldirilishi mumkin:

- kirish, nutqning o'zak ma'nosi;
- qarab chiqilayotgan muammoning qisqacha tarixi;
- muammoning rivojlanish tendensiyalari;
- muammoni hal qilish yuzasidan to'plangan tajriba;
- muammoni hal qilish yuzasidan takliflar;
- xulosa.

Kutubxonachi so'zga chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish vaqtida og'zaki nutqning yozma matndan farq qilishini esdan chiqarmasligi kerak. Bu hol notiq tayyor matndan foydalanadigan bo'lsa, foydalanuvchilar bilan o'zaro munosabatlarda qo'shimcha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayni vaqtda og'zaki nutq yozma matndan farqli o'laroq bir qator ustunliklarga ega bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- nutqning ohangdorligini o'zgartirish;
- asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish, tinglovchilarning diqqat-e'tiborini nutqning ayrim joylariga qaratish;
- nutqning ifodaliligini oshirish uchun uslubiy shakllardan (ritorik savollar, o'zaro muloqot shakllari va hokazo) foydalanish.



Foydalanuvchilar auditoriyasida nutq so'zlashda kutubxonachining xulq-atvori (o'zini tutishi) axborotni yaxlit idrok etishga xalaqit bermasligi kerak. Ma'ruzachining ohangi tabiiy bo'lishi, nutq qoidalariga va foydalanuvchilar tarkibiga mos kelishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari". – Toshkent, "Yoshlar nashriyot uyi", 2020-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot solnomasi". – Toshkent, "O'zbekiston" NMIO', 2020-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida". – "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 13-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 14-avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida. – "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 7-iyun.
6. Abdullayev H., Hasanov U. Estetika kursi. Ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2008-y. 186 bet.
7. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent, "Ma'naviyat", 1998-y. 304 bet.
8. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Ma'naviyat", 1997-y. 232 bet.
9. Bibliotechnoye obslujivaniye: Teoriya i metodika. Uchebnik. / red. A.Y. Ayzenberg. – Moskva, Izd-vo MGUKI, "Liberiya", 1996-y. 200 s.
10. Dvorkina M.Y. Bibliotechnoye obslujivaniye: novaya realnost. Leksii. – Moskva, "Profizdat", 2003-y. 48 s.
11. Dergileva T.V. Bibliotechnoye obslujivaniye: ucheb.-metod. posobiye. – Novosibirsk, GPNTB SO RAN, 2010-y. 136 s.
12. Ibrohimov A. Ruhii oziq manbai. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2012-y. 426 bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.